

XORAZM VILOYATIDA SANOATNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING DINAMIKASI TAHLILI

Ibragimov Jaxongir Baxodirovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xorazm viloyatida sanoatning tarkibiy tuzilishi dinamikasi chuqur tahlil qilinib, mavjud o'zgarishlar asosida muhim tarmoqlar aniqlangan. Tarkibiy o'zgarishlarning sanoat rivojiga ta'sirini baholash maqsadida regressiya tahlili o'tkazilib, elastiklik koeffitsiyentlari hisoblangan. Tadqiqot natijalari asosida viloyatda sanoat tarkibiy tuzilishini yanada takomillashtirish hamda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, ishlab chiqaradigan sanoat, tarkibiy tuzilish, diversifikatsiya, model, regressiya tahlili, determinatsiya koeffitsiyenti, Student mezon, Fisher mezon.

Аннотация

В данной статье проведён глубокий анализ динамики структурного строения промышленности Хорезмской области и выявлены ключевые отрасли на основе существующих изменений. Для оценки влияния структурных преобразований на развитие отрасли был проведён регрессионный анализ и рассчитаны коэффициенты эластичности. На основе полученных результатов определены приоритетные направления и разработаны практические рекомендации по совершенствованию промышленной структуры области и обеспечению высоких темпов роста.

Ключевые слова: Промышленность, обрабатывающая промышленность, структурная структура, диверсификация, модель, регрессионный анализ, коэффициент детерминации, критерий Стьюдента, критерий Фишера.

Abstract

This article presents an in-depth analysis of the dynamics of the industrial structure in the Khorezm region, identifying key sectors based on observed changes. A regression analysis was conducted to assess the impact of structural shifts on industrial development, and elasticity coefficients were calculated. Based on the findings, priority directions were defined, and practical recommendations were developed to improve the region's industrial structure and ensure high growth rates..

Keywords: Industry, manufacturing industry, structural structure, diversification, model, regression analysis, coefficient of determination, Student's test, Fisher's test.

KIRISH

Sanoatni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin, ammo avvalo ahamiyati tobora ortib borayotgan sanoat tarkibiy tuzilmasini ham takomillashtirish talab etiladi [2]. Buni quyidagi ikkita obyektiv zarurat bilan izohlash mumkin: birinchisi, hududlarning mavjud imkoniyatlari va salohiyatidan kelib chiqib,

nisbiy ustunlikka ega sanoat tarmoqlarini rivojlantirish zarurati bo'lsa, ikkinchisi esa taraqqiyotdagi o'zgarishlar natijasida ba'zi sanoat tarmoqlari mahsulotlariga talabning kamayishi yoki yo'qolishi hamda yangi turdagi sanoat mahsulotlarining kirib kelishidir. Shu sababli iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda sanoat tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim manba vazifasini bajaruvchi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 22-maqсадida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” vazifasi belgilangan [1]. Sanoatning yangi va istiqbolli, innovatsion yo'nalishlarini rivojlantirish hisobiga takomillashtirish, yirik sanoat tarmoqlari hamda hududiy korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tendensiyalarini o'rganish, tarkibiy tuzilmadagi o'zgarishlarning ta'sirini baholash, samarali va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlarni olib borish hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish hamda yashil iqtisodiyotni shakllantirish masalalari dolzarflik kasb etgani sababli, bu mavzu tadqiqot uchun muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, xitoylik olimlar yashil innovatsion texnologiyalar bilan sanoat tarkibiy tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni statistik jihatdan tahlil qilganlar [3]. Shuningdek, shaharlarda sanoatni rivojlantirish muammolari va tendensiyalarini aniqlash, mavjud muammolarni bartaraf etish kabi masalalar Hatuka tadqiqotlarida o'rganilgan [4].


Grinevkaya va boshqalar davlatning cheklangan imkoniyatlarini hisobga olgan holda sanoat tarmoqlari rivojlanishini modellashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqqanlar [5]. Sanoat tarmoqlarining barqaror taraqqiyotiga erishish uchun konseptual yondashuv asosida zarur mexanizmni shakllantirish masalalari ham tadqiq qilingan [6]. Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga oid modellar Rodionov D.G., Dmitriyev N.D. va Dubanevich L.E. tomonidan ishlab chiqilgan [7].

O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash [8], sanoatni modernizatsiyalash orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirish [9], zamonaviy konsepsiyalar asosida sanoatni hududiy joylashtirish muammolari [10] mahalliy olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Biroq aynan sanoat tarkibiy tuzilmasini dinamik tahlil qilish va ekonometrik modellashtirish masalalari mazkur ishlarda yetarli darajada o'rganilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat tarkibiy tuzilmasining o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda ishlab chiqaradigan sanoat 96,5 foiz ulush bilan yetakchi sanoat tarmog'i hisoblanadi.

Ushbu sanoat tarmog‘ining ulushi keyingi yillarda ijobiy o‘zgarish sur‘atiga ega bo‘lgani, uning tarkibiy tuzilmasidagi o‘zgarishlarini alohida ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. Tahlilni amalga oshirish uchun 2010–2024-yillar ma‘lumotlaridan foydalanildi va ular 2010-yil bazis yil sifatida qabul qilinib, o‘zgarish narxlariga o‘tkazildi (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiy tuzilishining dinamikasi¹

Asos qilib olingan davr tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqaradigan sanoatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Dastlabki davrda bu tarmoqning ulushi 55,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilda yangi sanoat yo‘nalishi — avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning kirib kelishi hisobiga bu ko‘rsatkich 31,4 foizgacha kamaygan. Keyingi yillarda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiy tuzilmasidagi asosiy o‘zgarishlar aynan ushbu ikki tarmoq hissasiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2019-yilga qadar 14,9 foizgacha kamaygan, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish esa 44,3 foizgacha oshgan. 2021-yilda esa keskin o‘zgarish qayd etilib, ikkala tarmoqning ulushi mos ravishda 24,3 va 38,3 foizni tashkil etgan. Ya’ni, pandemiyadan keyingi davrda oziq-ovqat

¹ Muallif ishlanmasi

mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi oshgan, biroq avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi qisqargan.

Viloyat sanoatida yana bir yetakchi tarmoq — to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hisoblanadi. Biroq, tadqiq qilinayotgan davr mobaynida ushbu tarmoq ulushi 26,7 foizdan 19,9 foizgacha kamaygan. So‘nggi uch yildagi tendensiyalarga nazar tashlansa, ichimliklar ishlab chiqarish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib chiqmoqda. Xususan, 2021-yilda bu yo‘nalish ulushi 2,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 8,3 foizgacha o‘sgan. Ya‘ni, deyarli to‘rt barobarga oshish kuzatilgan. Faqat 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 7,4 foizni tashkil etgan.

Sanoat tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash uchun bu o‘zgarishlarning viloyat miqyosida ishlab chiqaradigan sanoat tarmog‘i rivojiga qanday ta‘sir ko‘rsatganini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiy tuzilmasidagi o‘zgarishlar yetarli darajada sezilarli bo‘lgan, yangi sanoat turlarining kirib kelishi esa realdir. Mazkur o‘zgarishlarning ishlab chiqaradigan sanoat hajmiga ta‘sirini regressiya tahlili yordamida o‘rganish maqsadida, omillar orasidagi yuqori korrelyatsion bog‘liqlik inobatga olingan holda, dastlab asosiy uchta muhim yo‘nalishning ta‘siri baholandi.

Shuningdek, tarkibiy o‘zgarishlar aynan 2014-yildan boshlab qayd etilgan bo‘lib, o‘sha yilda yangi yo‘nalish — avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan va ulushi 24,1 foizni tashkil etgan. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha 2014-yilgacha ma‘lumotlar mavjud emasligi sababli tahlillar faqat 2014–2024-yillar uchun amalga oshirildi va quyidagi natijalar olinadi.

$$\ln(Y) = 1,21 + 0,17 * \ln(X_1) + 0,53 * \ln(X_2) + 0,31 * \ln(X_3)$$

Bu yerda:

Y — Xorazm viloyatida ishlab chiqaradigan sanoat mahsuloti hajmi 2010 yil narxlarida (mlrd so‘m); X₁ — Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010 yil narxlarida (mlrd so‘m); X₂ — To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010 yil narxlarida (mlrd so‘m); X₃ — Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hajmi 2010 yil narxlarida (mlrd so‘m);

Ishlab chiqilgan modelning koeffitsiyentlari adekvatligini asoslash maqsadida Styudent mezoni natijalari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular jadval qiymati bilan ($t(7; 0.025) = 2.365$) solishtiriladi. Birinchi omil — oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar ta‘sirini baholash uchun aniqlangan koeffitsiyent qiymati ushbu jadval qiymatidan kichik bo‘lgani sababli ehtimollik ko‘rsatkichi alohida ko‘rib chiqildi. Uning 0,084 ga tengligi esa bu omilni modelda saqlab qolish mumkinligini asoslaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: ushbu koeffitsiyentning ishonchlilik darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lib, bu model uchun zaruriy talabni qanoatlantiradi. Qolgan koeffitsiyentlarning ishonchlilik darajasi 95 foizdan yuqori bo‘lib, belgilangan mezonlarga to‘liq javob beradi.

Determinatsiya koeffitsiyentining 0,99 ni tashkil qilishi tanlangan omillar to‘g‘ri belgilanganligini va modelning umumiy izoh berish qobiliyati yuqoriligini ko‘rsatadi.

Modelning umumiy ishonchliligi va omillar ta'sirini ifodalovchi koeffitsiyentlarning bir vaqtda noldan farqli ekanligini aniqlash uchun Fisher mezon natijalari ham keltirib o'tilgan. Ushbu holatda mezonning jadval qiymati 4,35 ga teng bo'lib, aniqlangan qiymat undan katta bo'lgani uchun model ishonchli deb topiladi.

Durbin-Uotson statistikasi deyarli 2 ga teng bo'lgani sababli, natija optimal diapazonda ekanligi inobatga olinadi va jadval qiymatlari bilan qo'shimcha qiyosiy tahlilni o'tkazishga zarurat mavjud emas deb hisoblandi (1-jadval).

1-jadval

Xorazmda ishlab chiqaradigan sanoat mahsuloti hajmi va uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar ta'sirini baholash natijalari¹

(Model 8: OLS, using observations 2014-2024 (T = 11)

Dependent variable: 1 ICH)

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
Const	1.20846	0.360687	3.350	0.0122	**
1 FP	0.171738	0.0853664	2.012	0.0841	*
1 TOK	0.534822	0.183620	2.913	0.0226	**
1 ATP	0.314444	0.0747806	4.205	0.0040	***
Mean dependent var	8.118643		S.D. dependent var	0.585751	
Sum squared resid	0.013545		S.E. of regression	0.043989	
R-squared	0.996052		Adjusted R-squared	0.994360	
F(3, 7)	588.7173		P-value(F)	8.99e-09	
Log-likelihood	21.23966		Akaike criterion	-34.47932	
Schwarz criterion	-32.88774		Hannan-Quinn	-35.48259	
rho	-0.062669		Durbin-Watson	1.996728	

Model natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1 foizga oshishi ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmini 0,17 foizga oshiradi. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha aniqlangan koeffitsiyent esa tanlab olingan omillar orasida eng katta ta'sir kuchiga ega ekani bilan ajralib turadi. Unga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1 foizga oshishi ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmini 0,53 foizga oshiradi. Bu natijalar to'qimachilik sanoatini rivojlantirish ishlab chiqaradigan sanoatda o'sishni ta'minlaydigan istiqbolli yo'nalish ekanligini asoslaydi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ta'sirini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti esa 0,31 ni tashkil etadi. Ushbu ikki tarmoq — to'qimachilik va avtotransport vositalari sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirishdagi o'rni va ulushi salmoqli bo'lib qolmoqda.

Biroq tadqiqot natijalari oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi ham istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Afsuski, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tashish va qayta ishlash tizimidagi muammolar ushbu sohaning samaradorligini past darajada saqlab qolmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro me'yorlar asosida chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish esa hududiy eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda meva-sabzavot

¹ Stata dasturiy paketi asosida muallif tomonidan tuzilgan

mahsulotlarining eksportdagi ulushini oshirish masalasi dolzarb mavzuga aylangani bu fikrimizning dalili bo‘la oladi.

Shunga qaramay, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushining kamayganligi kuzatilmoqda. Natijada, uning ishlab chiqaradigan sanoat rivojida ahamiyati nisbatan pasaygan. Biroq yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish orqali ushbu sohaning roli va ulushini oshirish imkoniyatlari hali ham to‘liq ishga solinmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatida sanoat taraqqiyotini ta‘minlashda ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirish eng maqbul va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilgan hamda yangi sanoat tarmoqlari shakllantirilgan. Natijada sanoatni diversifikatsiyalash masalasi ma‘lum darajada hal etilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoat taraqqiyotini ta‘minlashda muhim yo‘nalishlar sifatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, yangi yo‘nalish bo‘lgan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish tarmoqlari ajralib turadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat rivojida to‘qimachilik tarmog‘ining ta‘siri eng yuqori darajada ekani aniqlangan. Keyingi o‘rinda avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish yo‘nalishi turibdi — ushbu sohaning ulushi oxirgi yilda biroz pasaygan bo‘lsa-da, keyingi yillarda sezilarli darajada oshganligi kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni

2. Yunxin Yi. The Relationship Between Industrial Structure and Economic Growth in China— An Empirical Study Based on Panel Data. E3S Web of Conferences 275, 01009 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202127501009>

3. Cheng G., Shi Y., Zhou H., Spatial statistical analysis of the effects of green technology innovation and industrial structure upgrading on carbon emission intensity. International Review of Economics and Finance, <https://doi.org/10.1016/j.iref.2025.104163>.

4. Hatuka Tali. (2017). Facing Forward: Trends and Challenges in the Development of Industry in Cities. Built Environment. 43. 145-155. 10.2148/benv.63.3.145.

5. Гриневская С. Н., Высоцкий А. Е. Моделирование развития отраслей промышленности в государствах с ограниченными экономическими возможностями // Россия: тенденции и перспективы развития. 2022. №17-1.;

6. Астафьева О.Е. (2022) Концептуальный подход к формированию механизма устойчивого развития экономики промышленных отраслей. Вестник Московского гуманитарно-экономического института, 3, 36–40. DOI: <https://doi.org/10.37691/2311-5351-2022-0-3-36-40>

7. Родионов Д.Г., Дмитриев Н.Д., Дубаневич Л.Э. Построение эконометрической модели устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник алтайской академии экономики и права. – 2021. – № 7-1. – С. 61-71 URL: <https://vael.ru/ru/article/view?id=1781>

8. Abulkosimov H. (2022). O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirish yunalishlari//“Uchinchi renessansni shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — T.: «Ilm- Ziyozakovat» nashriyoti, 2022. — 160-163 b.

9. Qurbonov J.Q. (2017). Sanoatni modernizatsiyalash O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish vositasi sifatida. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel.

10. Mahmudov, Mirabbos. (2023). Zamonaviy konsepsiyalar asosida sanoatni hududiy joylashtirishning o‘ziga xos yo‘llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 1. 162-168. 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp162-168



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**